



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 yanvar-oktyabr

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **0,6 foizga kamaydi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,8 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar **0,8 barobarga kam.**


2017 yil yanvar-oktyabr oylari da viloyatimizda 2,3 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,5 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,0 foizga ortgan hamda ularning soni 3,0 mingtani tashkil

Buning natijasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,1 foiz (0,3 ming birlik) ga kamaygan hamda ularning umumiy soni 25,8 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Andijon shahrida (32,5 foiz), Asaka (9,1 foiz), Andijon (7,2 foiz) Shahrixon (6,8 foiz) va tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 noyabr holatiga viloyatimizda jami 172 ta Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar mavjud bo'lib, ulardan 92 tasi qo'shma korxonalar, 80 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning ulushi, foizda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Andijon shahar 73 ta (42,4 foizi), Andijon 16 ta (9,2 foiz) Shahrixon 12 ta (6,9 foiz) va Baliqchi tumanlari 9 ta (5,2 foiz) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Bo'z 1 ta (0,6 foiz), Ulug'nor 2 ta (1,2 foiz), Xonobod sh. 3 ta (1,7 foiz) va Paxtaobod t u m a n i 3 t a (1 , 7 f o i z) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

	Soni	Ulushi, %
Andijon viloyatida	172	100,0
Oltinko'l	8	4,6
Andijon	16	9,2
Baliqchi	9	5,2
Bo'z	1	0,6
Buloqbo'shi	6	3,5
Jalaquduq	5	2,9
Izboskan	6	3,5
Ulug'nor	2	1,2
Qo'rg'ontepa	7	4,0
Asaka	9	5,2
Marhamat	6	3,5
Shahrixon	12	6,9
Paxtaobod	3	1,7
Xo'jaobod	6	3,5
Andijon sh.	73	42,4
Xonobod sh.	3	1.7

Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2017 yil 1 noyabr holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 21,5 ming ortiqni tashkil qilgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi yani 7445 tasi (34,6 foizi) Andijon shahriga, 2008 tasi (9,3 foizi) Asaka, 1588 tasi (7,4 foizi) Andijon, 1427 tasi (6,6 foizi) Shaxrixon, 1204 tasi (5,6 foizi) Oltinko'l va 1174 tasi (5,5 foizi) Baliqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar kesimidagi ulushi, foizda

